

O'YIN FAOLIYATI MAKTABGACHA YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALAR IJTIMOY MOSLASHUVINING VOSITASI SIFATIDA

Jizzax davlat pedagogika instituti Maxsus pedagogika kafedrası
o'qituvchisi, Djurayeva Sohiba Barat qizi

Annotatsiya: O'yin texnologiyalari ta'lim jarayonida uzoq vaqtlardan beri qo'llaniladi. Bugungi kunda ular faqatgina boshlang'ich ta'lim sohasidagina keng qo'llanilmoqda. Mashg'ulotlarni o'yin shakli o'yin usullari va vaziyatlari yordamida tuzish, bolalarni bilish faoliyatining faollashishiga ko'maklashadi. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarni o'yin faoliyati orqali maktab ta'limiga ijtimoiy moslashtirish masalalari haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: O'yin faoliyati, maktabgacha yoshdagi bolalar, ijtimoiy moslashuv, korreksiya.

O'yin – bolalar faoliyatining shunday turlaridan biriki, u kattalar tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalarni predmetlar bilan turli harakatlarni amalga oshirish, muloqotning usul va vositalariga o'rgatish orqali tarbiyalash maqsadida qo'llaniladi. O'yin davomida bola shaxs sifatida rivojlanadi, bolaning o'quv va tarbiyaviy faoliyati, uning kishilarga bo'lgan munosabatining muvaffaqiyati undagi ruhiy jihatlar rivojiga bog'liq bo'ladi. O'yin texnologiyalarida muhim rol yakuniy o'tmishga qaratilgan muhokamaga tegishli bo'lib, unda o'quvchilar o'yinning borishi va natijasini, o'yin modeli va voqelikni, shuningdek o'quv-o'yin o'zaro faoliyatining borishini birgalikda tahlil etadi. O'yin yaqin rivojlanish zonasini ta'minlovchi, aqli zaif bolaning psixologik ko'rinishini shakllanishiga rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatuvchi yetakchi faoliyat bo'lishi kerak.

O'yin mashg'ulotlari tizimining asosiy vazifalari:

1. Bolalarda muhokama etilayotgan vazifa yuzasidan o'z fikrlarini bayon etishga, o'z takliflarini kiritishga bo'lgan istakni shakllantirish.

2. Bolalarni muhokama etilayotgan mavzuga doir o'z shaxsiy tajribasi orqali yoki boshqa kishilar tajribasidan ma'lum dalillarni yodga tushurishga, shuningdek improvizatsiya (fantaziya etishga) etishga, gaplarni qurishga o'rgatish.

3. Bolalarni o'zaro bir-birini tinglashga va bir-biridan olgan dalillardan foydalanishga o'rgatish.

4. Bolalarni ahloqiy baholarga tayangan holda shaxsiy qarorlarni tanlashga o'rgatish.

Tuzilgan o'yin muammolariga javoblarni topish ijtimoiy malakani talab etib, bolalarni real hayotda ham bilish faolligini oshiradi. O'yin davomida erishilgan bola ruhiy rivojlanishidagi siljish, uning mashg'ulotlarda tizimli ta'lim olishi imkoniyatiga sezilarli ta'sir etib, uning tengdoshlari va kattalar doirasida aniq pozitsiyasining takomillashishiga ko'maklashadi.

O'yinning rivojlantiruvchi ahamiyati nafaqat bolalarning har tomonlama rivojlanish imkoniyatini amalga oshirishdan, balki u bolalarning qiziqish doiralarini kengayishiga, bilim olishga bo'lgan ehtiyojning paydo bo'lishiga ko'maklashadi.

O'yinning diagnostik roli ham katta. U bolaning ko'pgina shaxsiy sifatlarining rivojlanish darajasini, uning bolalar jamoasidagi o'rnini aniqlash imkonini beradi.

Aqli zaif bolalarda mustaqil, ketma-ketlikdagi o'yinning borishini tormozlovchi ko'pgina sabablar orasida, birinchi navbatda asosiysini, bosh miya qobig'ining integrativ faoliyatining rivojlanmaganligini ko'rsatish kerak. Bola rivojlanishi uchun lozim bo'lgan pedagogik shart-sharoitlarning mavjud emasligi ham o'yin faoliyatining shakllanishiga salbiy ta'sir etadi. O'yin davomida bolalar jamoaviy tafakkurlashning ilk tajribalarini egallashlari isbotlangan. Olimlarning fikricha, bolalar o'yini kattalarning mehnat va ijtimoiy faoliyatining aksi sifatida paydo bo'lgan. Biroq ma'lumki, o'ynay olish kundalik hayotda egallanganlarni o'yinga avtomatik tarzda ko'chirish yo'li bilan amalga oshmaydi. Bolalarni o'yinga o'rgatish kerak. Jamiyat tomonidan o'z madaniyatini o'sib kelayotgan yosh avlodga yetkazishning muvaffaqiyati kattalar tomonidan bolalarga taklif etiladigan o'yinlarga qanday mazmun berilishiga bog'liq. SHuni ta'kidlash joizki, ijtimoiy tajribaning samarali o'zlashtirilishi faqatgina bolaning faoliyati jarayonida, uning shaxsiy faolligi sharoitidagina amalga oshadi.

Agarda tarbiyachi tajribani o'zlashtirishning faol xarakterini inobatga olmasa, o'yinga o'rgatish va o'yinni boshqarishning eng mukammal uslubiy usullari o'zining amaliy maqsadiga erishmaydi. O'yin orqali har tomonlama tarbiyalash vazifalari har bir yosh davrida o'yin faoliyatining psixologik asosining shakllanganligi sharti bilangina muvaffaqiyatli amalga oshadi. O'yin davomida idrok, tafakkur, xotira, nutq, ya'ni shunday fundamental ruhiy jarayonlar shakllanadiki, ularning yetarlicha rivojlanmaganligida shaxsning har tomonlama tarbiyasi haqida so'z ham bo'lishi mumkin emas. Bola tafakkurining rivojlanish darajasi uning faoliyat xarakterini, uni amalga oshirishning intellektual darajasini belgilaydi. Tarbiyachi bolalarning har qanday faoliyati ma'lum vazifani hal etishga qaratilganini yodda tutishi kerak. Asosiy vazifa ko'pgina oraliq vazifalarga ega, ularning hal etilishi sharoitlarni yaxshilashga va shu orqali belgilangan maqsadga erishishni yengillashtirishga imkon beradi. Bola hal etishi lozim bo'lgan amaliy vazifalar o'quv vazifalaridan farq qiladi. O'yin vazifalarining mazmuni hayotning o'zi, bolaning atrof-olami, uning tajribasi, bilimlari bilan uqtiriladi.

Bola shaxsiy faoliyati orqali tajriba egallaydi, tarbiyachi, ota-onadan ko'p narsalarni bilib oladi. Turli-tuman bilimlar, taassurotlar uning olamini boyitadi, bularning barchasi o'yinda o'z ifodasini topadi. Amaliyotda shunday holatlar ham kuzatiladiki, tarbiyachi bolalar tafakkurining umumlashtiruvchi o'yin harakatlarining ahamiyatini tushunmay, ulardan amaliy harakatlar bilan maksimal darajada o'xshash jamoaviy harakatlarni talab etadi

Birinchiidan, agarda bola bilan kundalik hayotda sodir bo'ladigan barcha holatlar o'yinga ko'chirilsa, o'yin o'z-o'zidan yo'q bo'lib qoladi yoki uning asosiy o'ziga xosligi – tasavvurdagi vaziyat yo'qoladi.

Ikkinchiidan, o'yin yaxshi tanish, biroq kam umumlashgan hayotiy vaziyatni aks ettirib, beixtiyor oxiri berk ko'chaga kirib qoladi. Shu bilan birga ma'lumki, kundalik hayotda bolalar nafaqat aniq bilimlarnigina, balki noaniq, mavhum bilimlarni ham egallaydilar.

Masalan, bola duradgor kim ekanligini biladi, biroq uning nima bilan shug'ullanishi bola uchun tushunarsiz. O'z tasavvurlarini oydinlashtirish maqsadida o'yin davomida savollar bilan murojat etadi, javob olgach aniq bilimlarga ega bo'ladi. O'yin faoliyati rivojlanishining birinchi bosqichi tanishtirish o'yini hisoblanadi. Kattalar tomonidan bolaga taklif etilgan mavzu asosida o'yinchoq predmeti yordamida u predmetli-o'yinli faoliyatni ifodalaydi. Uning mazmunini predmetni o'rganish jarayonida amalga oshadigan manipulyatsiya harakatlari tashkil etadi. Bolaning mazkur faoliyati tez orada o'zining mazmunini o'zgartiradi: tekshirish ishlari predmet-o'yinchoqning o'ziga xosliklarini aniqlashga yo'naltirilgan va shu bois mo'ljaldagi harakat operatsiyalarga aylanib ketadi.

O'yin faoliyatining keyingi bosqichi aks ettiruvchi o'yin nomini olib, unda alohida predmetli o'ziga xos operatsiyalar predmetning o'ziga xos sifatlarini aniqlash va mazkur predmet yordamida ma'lum natijaga erishishga yo'naltirilgan harakatlar darajasiga o'tib ketadi. Bu erta bolalik davridagi o'yinning psixologik mazmuni rivojlanishining avj vaqtidir. Aynan u bolada tegishli predmetli faoliyatning shakllanishi uchun kerakli asosni tayyorlaydi. O'yin faoliyatining bosqichma-bosqich rivojlanishi haqidagi ilmiy tasavvurlar turli yosh guruhlarida bolalar o'yin faoliyatini boshqarishga doir yanada aniq, tizimli tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi. Aqliy jihatdan o'z yechimini topgan chinakkam, hissiy boyitilgan o'yinga erishish uchun, pedagog bolaning tajribasini maqsadga yo'naltirilgan ravishda boyitishi, mustaqil o'yinlar davomida maktabgacha yoshdagi bolani borliqni ijobiy aks ettirishga undashi kerak. O'yin bolaning yaqin rivojlanish zonasini hosil qiladi, shu bois maktabgacha yoshda yetakchi faoliyat hisoblanadi. Bu o'yin davomida faoliyatning yangi, yanada rivojlangan turlari tug'iladi, jamoa bilan birgalikda faoliyat ko'rsatish, o'z hatti-harakatlarini ijodiy, mustaqil boshqarish ko'nikmalari shakllanadi. Bolaning o'yin davomida rivojlanishi o'yin mazmunining turli-tuman yo'naltirilganligi hisobiga amalga oshadi.

Jismoniy (harakatli), estetik (musiqiy), aqliy (didaktik va syujetli) tarbiyaga yo'naltirilgan o'yinlar mavjud. Spu bilan birga ko'pgina o'yinlar (syujetli-rolli o'yin, drammatizatsiyalar, harakatli o'yinlar va b.) ahloqiy tarbiyaga ko'maklashadi.

Tarbiyaviy amaliyotda turli o'yinlarning o'z vaqtida va to'g'ri qo'llanilishi bolalar uchun tushunarli shaklda dasturda belgilangan ta'lim va tarbiya vazifalarining hal etilishini ta'minlaydi. Vujudga kelgan o'yinli muammolarga javob izlash bolalar bilish faolligini real hayotda ham orttiradi. O'yin davomida erishilgan bola ruhiy jarayoning rivojlanishi uning mashg'ulotlarda tizimli ta'lim olishi imkoniyatiga sezilarli ta'sir etadi, uning tengdoshlari va kattalar orasida aniq ahloqiy-estetik pozitsiyasining shakllanishiga ko'maklashadi.

O'yinning progressiv, rivojlantiruvchi ahamiyati nafaqat bolani har tomonlama rivojlanish imkoniyatining amalga oshishidan, balki uning bolalar qiziqishlarining doirasini kengayishiga, mashg'ulotlar davomida yangi faoliyat – o'quv faoliyatining paydo bo'lishiga ko'maklashishdan iborat, bu esa bolaning maktab ta'limiga ruhiy tayyorgarligining muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Maxsus maktabgacha ta'lim muassasasiga qabul qilinadigan kichik yoshli aqli zaif bolalar odatda o'ynashni umuman bilmaydilar, ular o'yinchoqlarning funksional vazifasidan qat'iy nazar, ular bilan bir xildagi harakatlarni bajaradilar. Shu tarzda bola uzoq vaqt davomida bir xildagi harakatlarni bajarib, kubikni, o'rdakchani, mashinani taqillatishi mumkin. Mazkur holatda qo'g'irchoqqa bo'lgan munosabat ayniqsa e'tiborga loyiq. Ya'ni, qo'g'irchoq odatda boshqa o'yinchoqlar singari qabul qilinadi. Qo'g'irchoq quvonchli, adekvat hissiyotlarni tug'dirmaydi va insonning o'rinbosari sifatida idrok etilmaydi. Hayvon o'yinchoqlarga nisbatan ham maktabgacha yoshdagi aqli zaif bola qiziquvchan hissiy munosabatni bildirmaydi. Bolaning hayvon o'yinchoqlar bilan harakati kubiklar va mashinalar bilan bajariladigan harakatlarni eslatadi. Shuni ham ta'kidlash muhimki, o'qitilmaydigan maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar orasida o'yinchoqni "ta'm orqali" idrok etib ko'rishni yaxshi ko'radigan bolalar ham uchraydi. Ular rangli kubik bo'lagini tishlab olishga, qo'g'irchoqni yalashga harakat qiladilar. O'yinchoqlar bilan bunday harakatlarni bajarish asosan chuqur aqliy nuqson bilan kasallangan bolalar uchun xos, biroq qator hollarda bunday holat o'yinchoqlar bilan harakatlarni bajarish tajribasining yo'qligi va o'yinchoqlarni funksional vazifasiga mos ravishda qo'llay bilmaslik bilan asoslanadi.

Aqli zaif bolalarning katta qismida manipulyatsiyalar bilan bir qatorda protsessual harakatlar ham uchrab turadi, bunda bola birgina o'yin jarayonini to'xtamasdan takrorlayveradi. Qo'g'irchoqning kiyimlarini yechadi va kiydiradi, kubiklardan yasagan qurilmasini buzadi va qayta quradi. Ta'lim olmagan maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar o'yinlarining farqli jihati noadekvat harakatlarning mavjudligi hisoblanadi. Bunday harakatlar na mantiqan, na o'yinchoqning funksional vazifasi bilan ruxsat etilmaydi. Sog'lom maktabgacha yoshdagi bola cho'pdan qoshiq o'rniga foydalanadi, kubikni sovun o'rniga va b. mamnuniyat bilan qo'llaydi. Bunday harakat o'yin talablaridan kelib chiqan holda bajariladi va rivojlanishning yuqori darajasidan dalolat beradi. Bunday harakatlar o'yin talablari bilan shartlanadi va uning yuqori rivojlanish darajasidan dalolat beradi. Biroq aynan predmet o'rinbosarlarni qo'llash orqali bunday harakatlar maxsus maktabgacha ta'lim muassasasiga qabul qilinayotgan maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda kuzatilmaydi.

Maxsus ta'limsiz o'yin aqli zaiflarda yetakchi o'rinni egallay olmaydi va o'z navbatida ularning ruhiy rivojlanishiga ta'sir etmaydi. Bunday shaklda o'yin anomal bola nuqsonlarini korreksiyalash va kompensatsiya etish vositasi sifatida xizmat qila olmaydi. "O'yin" bo'limiga aqli zaif bolalarni o'qitish va tarbiyalash dasturida markaziy o'rin ajratilgani bejiz emas. Bu orqali mazkur faoliyatning bola rivojlanishini boyitishda, anomal bola ruhiyatidagi turli-tuman nuqsonlarni korreksiyalash va kompensatsiya etish, maktab ta'limiga tayyorlashdagi birlamchi ahamiyati ta'kidlanadi. Ma'lumki, bolaning o'yin faoliyati o'yinlarning turli-tumanligi singari ko'p qirralidir. Bunda yetakchi ahamiyat syujetli-rolli o'yinlarga beriladi. O'yinlarning aynan mazkur turi o'yinni faoliyat sifatida eng ahamiyatli va muhim qirralarini o'zida mujassamlashtiradi. Uning bola rivojlanishidagi

muhim ahamiyatini inobatga olib, dastur aqli zaif bolada syujetli-rolli o'yinning murakkab mexanizmini bosqichma-bosqich shakllantirishga alohida urg'u beradi.

O'qituvchi-defektolog oldida aqli zaif bolalarni o'yin dunyosiga asta-sekin kiritish, uni turli o'yin usullariga o'rgatish, tengdoshlari bilan muloqotning turli vositalarini qo'llash vazifasi turadi. Aqli zaif bolada bolalar bilan o'ynash istagi tug'ilishi uchun u tayyor bo'lishi kerak. Syujetli-rolli o'yinlardan tashqari aqli zaiflar didaktik va harakatli o'yinlarga o'rganadilar. Bolalarning harakatlanishga bo'lgan ehtiyojini inobatga olib, harakatli o'yinlarning qismlarini keng qo'llash mumkin. Shunday qilib "O'yin" bo'limi o'z ichiga uch yo'nalishni qamraydi: syujetli-rolli, harakatli va didaktik o'yinlarga o'rgatish. Birinchi yo'nalish bo'yicha mashg'ulotlarni defektolog va tarbiyachi, qolgan ikki yo'nalish bo'yicha asosan (maxsus mashg'ulotlar) tarbiyachilar o'tkazadilar.

ADABIYOTLAR

1. Jo'rayeva, S. (2021). INTELEKTIDA NUQSONI BO'LGAN KICHIK MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN KORREKSION ISHLAR SAMARADORLIGI. Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya jurnali, 1 (3).
<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/3830>
2. Djurayeva Sokhiba Barat qizi, Norkulova Soraxon Gulmurod qizi Inclusive Education as a Factor for Improving the Quality of Life of Children with Disabilities <https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/983/916>
3. Djo'rayeva, S. (2022). DISLEKSIYA NUTQ NUQSONIGA EGA BO'LGAN BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA O'QISHNI TUSHUNISH BO'YICHA KO'RSATMALAR. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(5). Извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5063>
4. Djo'rayeva, S. (2022). BOLALARDA NUTQ TEMPINING BUZILISHI VA UNI BARTARAF ETISHNING KORREKSION USULLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(5). Извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4950>
5. Yunusov, M. (2021). MAXSUS TA'LIM JARAYONIDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(1). Извлечено от <https://journal.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/711>
6. Yunusov, M. (2021). ESHITISH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH DARSLARIDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (1). Извлечено от <https://journal.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1190>
7. Yunusov, M. (2021). MAKTABGACHA YOSHDAGI ESHITISH QOBILIYATI CHEKLANGAN BOLALAR TALAFFUZINI KORREKSIYALASHDA YANGI AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*

образовании, 1(4).

извлечено

от

<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4599>

8. Yunusov, M. (2021). ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING KOGNITIV FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT VA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 1(3). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4062>

9. Yunusov, M. (2021). DAUN BOLALAR NUTQINI KORREKSIYALASHNING ZAMONAVIY USULLARI. *Scienceweb academic papers collection*.

10. Yunusov, M. (2021). ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI O'QITISH VA TARBIYALASHNING INNOVATSION KO'RGAZMALI USULLARI. *Scienceweb academic papers collection*.

11. Yunusov, M. (2021). ESHITISH QOBILIYATI CHEKLANGAN BOLALARDA O'QUV FAOLIYATI UCHUN MOTIVATSIYANI OSHIRISH VOSITASI SIFATIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH. *Scienceweb academic papers collection*.

12. Yunusov, M. (2021). KAR BOLALARNI O'QITISHDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH. *Scienceweb academic papers collection*.

13. Haqberdiyev, J. (2021). MAXSUS MAKTAB -INTERNATDA KOKLEAR IMPLANTLI BOLALARDA NUTQIY MULOQOTNI SHAKLLANTIRISH. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2631>

14. Haqberdiyev, J. (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI AQLIY RIVOJLANISHIDA KAMCHILIGI BOR BO'LGAN BOLALARNING O'YINLARINI TASHKIL ETISH BO'YICHA KORREKSION ISHLARINING XUSUSIYATLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 1(4). извлечено

извлечено

от

<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4748>

15. Haqberdiyev, J. (2022). KOXLEAR IMPLANTAT BOLALARDA OG'ZAKI NUTQNI IDROK ETISHNI O'RGANISH VA RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK USULLAR. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 1(4). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4747>

16. Haqberdiyev, J. (2021). ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ЗАДЕРЖКУ РЕЧИ И ПУТИ ЕЕ УСТРАНЕНИЯ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (1). извлечено

извлечено

от

<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1204>

17. Haqberdiyev, J. (2021). KOXLEAR IMPLANTATSIYADAN KEYIN BOLANI REABILITATSIYA QILISH MASALALARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 1(1). извлечено от <https://art.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/713>

18. Axrorova, S. (2021). РАННИЙ ДЕТСКИЙ АУТИЗМ И РАБОТА ПО РАЗВИТИЮ РЕЧИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (2). извлечено от <https://matinfo.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1788>
19. Axrorova, S. (2021). ИГРА КАК СРЕДСТВО КОРРЕКЦИИ АУТИСТИЧЕСКОГО ПОВЕДЕНИЯ У ДЕТЕЙ ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА ТЕРАПИИ ИГРОЙ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(1). извлечено от <https://matinfo.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/710>
20. Axrorova, S. (2021). AUTIZM SINDROMIGA CHALINGAN BOLALAR RIVOJLANISHIDAGI NUQSONLARNI OLDINI OLISH VA KORREKSIYALASH. *Zamonaviy ta'limda Pedagogika Va Psixologiya Fanlari*, 1(3). Retrieved from <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4061>
21. Axrorova, S. (2021). F 84 BU QANDAY TASHXIS? MUAMMOLAR VA YECHIMLAR. *Zamonaviy ta'limda Pedagogika Va Psixologiya Fanlari*, (2). Retrieved from <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2907>
22. Axrorova, S. (2019). Медико-педагогические и психологические основы подготовки детей с синдромом аутизма к социальной жизни. Scienceweb academic papers collection.
23. Haqberdiyev J. МАКТАБГАЧА YOSHDAGI KOXLEAR IMPLANTANT BOLALARNI TASVIRIY FAOLIYAT VOSITASIDA NUTQINI RIVOJLANTIRISH. ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference https://zenodo.org/record/5855156#.YfuJ_99BzIU